



O'ZBEKISTONDA IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING NAVBATDAGI SAMMITI BO'LIB O'TADI

8-9-noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) o'n oltinchi sammiti bo'lib o'tadi.

Tadbir Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Turkmaniston va Turkiyaning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etishi kutilmoqda.

Kun tartibiga muvofiq, IHT doirasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-

kommunikatsiyaviy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish hamda ushbu ko'p tomonlama tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Sammit dasturi doirasida O'zbekiston yetakchisi qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

Ta'kidlash joizki, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga 1985-yilda asos solingan, uning doimiy faoliyat yurituvchi kotibiyati Tehron shahrida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yildan boshlab IHT a'zosi.

O'ZA

IHTNING TOSHKENT SAMMITI:

KENG MINTAQAGA TEGISHLI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA UMUMIY YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQUV UCHUN YANGI MAYDON

Tarixda ilk marotaba Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti O'zbekiston poytaxtida bo'lib o'tadi

8-9-noyabr kunlari Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) sammiti bo'lib o'tadi.

Mamlakatimiz 1992-yil noyabr oyidan buyon mazkur tashkilotga a'zo bo'lsa-da, ushbu tuzilma tarixida IHT doirasidagi ko'p tomonlama sammit ilk bor yurtimizda o'tkazilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1985-yilda Tehron (Eron) tashkil topgan mintaqaviy davlatlararo tuzilma hisoblanadi.

IHTning o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalar va transport-kommunikatsiya so-

hasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish maqsad va vazifalari O'zbekiston manfaatlariga to'la mos keladi.

▶ Davomi 2-betda



MUNOSABAT



TARAQQIYOT DUNYOSINING YANGI MAKONI

Bugun jahonda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, harbiy, siyosiy to'qnashuvlar, oqibatini bashorat qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar, global siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, gibrid urushlar kabi tahdidlar va harakatlar davlatlar, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik, o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlashni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Bunday sharoitda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan do'stona va tinchlikparvar faol tashqi siyosat ikki va ko'p tomonlama aloqalar yangi bosqich va qamrovga ega bo'lishida bosh omil bo'lib, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish jarayoni mintaqaviy va global miqyosda yangi imkoniyatlar va vositalarni jalb etish, mintaqada barqaror va uyg'un rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu borada O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi

faoliyati o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, Tashkilot faoliyati samaradorligi, sa'y-harakatlarning amaliy bo'lishida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanish evolyutsiyasi

Endilikda jahoniy qamrovga ega taraqqiyot dunyosiga yangi davlatlar, mintaqalar kirib kelmoqda. Yangi siyosiy kuchlar paydo bo'lmoqda. Shu bois, xal-

qaro siyosiy munosabatlarda ham jiddiy o'zgarishlar kuzatilyapti. O'z navbatida, ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarni birgalikda yengib o'tish zarurati mintaqalar miqyosida o'zaro sheriklik, muloqot maydoni va hamkorlik institutlarini shakllantirish hamda takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Vengriya xalqaro munosabatlar subyekti sifatida Turkiy davlatlar tashkilotini (TDT) tuzgani obyektiv zarurat sifatida yuqoridagi jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Albatta, a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'ta qiyin geosiyosiy jarayonlarda o'z manfaatini va istiqbolini belgilab olishi uchun mazkur tizim muhim ahamiyatga ega.

▶ Davomi 3-betda

XALQARO HAMKORLIK

GSP+ BENEFITSIAR MAQOMIDA YUKSALISH

O'zbekiston — Fransiya aloqalarining yangi sahifasi

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, ta'lim, fan va sanoat sohalaridagi hamkorlik manfaatli diplomatik aloqalarni chuqurlashtirish asosida mustahkamlanmoqda. Ikki davlatning sarmoyaviy hamkorligi iqtisodiyotning ko'plab soha va tarmoqlari, jumladan, mashinasozlik, energetika, kimyo, attorlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, vinochilik, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda ilmfan, turizmga yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Fransiyaning O'zbekiston bilan yaqin iqtisodiy aloqalarini kengaytirib borishi yurtimiz oddiy xom-ashyo yetishtirib beruvchi emas, balki yuqori qo'shimcha qiymat

yaratuvchi diversifikatsiya amaliyotini o'tkazayotgan industrial davlat sifatida jahon bozorida o'z o'rini topayotganini ko'rsatadi.

▶ Davomi 5-betda

INSON QADRI UCHUN

ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANAYOTGAN FARG'ONA



Farg'ona shahridagi "Charxiy" mahalla fuqarolar yig'ini mahalla fuqarolar yig'ini yashovchi Dinara Ahmedova I guruh nogironi. Qo'lida hunari bo'lmagani uchun qayerga ish izlab borsa, rad javobini olaverardi. Uning joniga "Ishga marhamat" monomarkazi oro kirdi. Mahalla fuqarolar yig'ini tavsiyasi bilan markazdagi kursda o'qib, maxsus sertifikatga ega bo'ldi.

— Harakatlanishga qiyinalaman, ammo qo'l imkoniyatlarim yaxshi, — deydi Dinara oddiy qog'ozlardan turfa gullar yasash asnosida. — Uch oy bepul kursda o'qib, stipendiya ham oldik. Asosiysi, oddiy xom-ashyodan tabiiy va go'zal buyumlar tayyorlash hadisini berishdi. Endi uyda o'tirib, hunar ortidan daromad topib, oilamizga ko'mak berish imkoniyatiga egaman.

▶ Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

"ELEKTRON HUKUMAT" DAN "RAQAMLI HUKUMAT" GA

Mamlakatimizda davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Boisi, ushbu tizim davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligini oshirish, fuqarolar hayotini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

▶ Davomi 3-betda

AGROTARMOQ

QISHLOQ XO'JALIGI VA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI

Imkoniyat keng, uni o'zlashtirish malakali kadrlarga bog'liq



So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida kuzatilayotgan tub o'zgarishlar, yangilanish jarayonida mirishkorlarimiz dunyoqarashi, mehnatga munosabati ham butkul o'zgardi. Pirovardida, yildan-yilga samaradorlik ortib boryapti. Bu juda muhim omil. Birinchidan, agrar tarmoq rivoji oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi qo'shilgan qiymat yaratishda nisbatan katta ustunlikka ega. Mana shu jihatlardan kelib chiqib, sohaga bozor tamoyillari, ilg'or tajriba va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan parallel ravishda malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilayotir.

▶ Davomi 5-betda

DOLZARB MAVZU



HAR TOMCHIDA HAYOT AKSI

2024-2026-yillarda respublikamizda 1 million 100 ming fuqaro ilk bor ichimlik suv bilan ta'minlanadi

Mazkur yillarda suv ta'minoti og'ir sakkiz yuzdan ortiq mahallaga ichimlik suv yetkazib berilib, 125 mingga yaqin xonadonga tarmoqlar tortiladi. Bu boradagi tegishli vazifalar Prezidentimizning "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilab berildi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, hozir yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. 2030-yilga borib mamlakatimizda ham suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatida O'zbekiston dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli yo'q emas.

Albatta, bu ilmiy dalililar xavotirli va har bir insonni o'ylantirishi kerak. Shunday ekan, suvni tejash va undan oqilona foydalanish shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir.

▶ Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

Strategiyada O'zbekiston 2030-yilga qadar BMTning elektron hukumat reytingida (e-Government Development Index) "TOP-30" talikka kirishiga erishish vazifasi ham qo'yildi. Mazkur reyting mamlakatlarda soha rivojini ko'rsatuvchi xalqaro indeks hisoblanadi. Uning ahamiyatli jihati shundaki, aholi va davlat o'rtasida elektron muloqotni kengaytirish, xizmatlarni qulaylashtirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.



MUNOSABAT

TARAQQIYOT DUNYOSINING YANGI MAKONI



Oltinchi, global iqtisodiy inqiroz kuchayib borayotganiga qaramasdan, o'zaro savdo hajmi o'sishiga erishildi.

Yangi davrning yangi tashabbuslari

Davlatimiz rahbarining Turkiy davlatlar tashkiloti yubiley sammitida dunyoda kechayotgan ziddiyatli siyosiy jarayonlarning chuqur tahlili asosidagi muhim strategik g'oya va mulohazalari, o'z vaqtida zarur yechimga olib keladigan jihatlarni ko'rsatgani va istiqbolga qaratilgan bilan farqlanadi. Avvalo, bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda turkiy xalqlarning ovozi dunyo bo'ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangi davrning yangi tashabbuslari, shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro tashkilotlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib borayotgani ta'kidlandi.

"ELEKTRON HUKUMAT" DAN "RAQAMLI HUKUMAT" GA

Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Hozirga kelib elektron hukumatning yagona identifikatsiya tizimi (id.egov.uz) takomillashtirilib, foydalanuvchilar soni 7 milliondan ziyodni tashkil etmoqda. Mazkur tizim orqali fuqarolarga davlat idoralarning 245 dan ziyod axborot resursidan foydalanish imkoniyati yaratildi.


Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) 400 dan ortiq davlat xizmatidan inson omilidagi elektron tarzda foydalanish imkoniyati yaratildi va elektron xizmatlarga bo'lgan talab 10 barobarga oshdi. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 3,6 milliondan ortgan.

Elektron hukumat tizimi ayni vaqtda davlat organlarining o'zaro va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashinuvini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Xususan, tadbirkorlik subyektlari statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalarni, ruxsatnomalarni, sertifikatlar berish jarayonida bu tizimdan samarali foydalanilmoqda. Shuningdek, elektron tijorat,



lashtirish, shuningdek, davlat xizmatlarini "uch qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish masalasi o'rinda.

Mazkur dasturiy hujjatda davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirib, ularning 40 foizini xususiy sektorga o'tkazish va fuqarolarning shaxsiy ishtirokini ikki barobarga qisqartirish,



internet tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarini amalga oshirish ham rivojlanib bormoqda.

Bundan tashqari, kommunal xizmatlarni hisobga olish, nazorat qilish va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlari takomillashtirildi. Naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlari va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllari rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, "Elektron hukumat" tizimida elektron xizmatlar foydalanuvchilari ba'zi noqulayliklarga duch kelayotgani ham bor haqiqat. Qulay interfeysning mavjud emasligi, elektron identifikatsiya qilish imkoniyatining cheklangani va eng yuqori talab vaqtida serverlarga yuqori yuklarni bo'layotgani shular jumlasidandir.

Mazkur masalalarni bartaraf etish uchun elektron hukumatni qo'llab-quvvatlovchi axborot tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, dasturiy ta'minotni yangilash va yangi elektron xizmatlarni ishlab chiqish lozim. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarurati mavjud.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bu borada ustuvor vazifalar belgilangan ayni muddao bo'ldi. Xususan, elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha, faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizgacha yetkazish, kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida 40 taga oshirish o'z aksini topgan.

Kamida 300 ta davlat xizmatini xususiy sektorga o'tkazish, litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini 20 foizga qisqartirish hamda 50 foizini, davlat xizmatlari ko'rsatishning 300 taga yaqin tartib-taomillarini soddala-

Sayfidin JO'RAYEV, siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Tashkilotning asosiy maqsadi turkiy mamlakatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, barcha sohalarida hamkorlik, o'zaro muloqot maydonini yaratish, Yevrosiyo hududida va global darajada xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

TDT global miqyosdagi salbiy jarayonlarning oldini olishni imkon darajada yengilroq o'tkazish va yangidan shakllanayotgan xalqaro tizimlarda turkiy davlatlar o'z o'rnini topishi va istiqbolli rivojlanishga ega bo'lishning yangi imkoniyatlari hamda shart-sharoitlarini yaratdi. O'z navbatida, yosh mustaqil davlatlarning, ayniqsa, milliy o'zlikni va qadriyatlarini anglash asosida dunyo siyosiy-iqtisodiy-ijtimoiy jarayonida o'z o'rniga ega bo'lish va milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan xalqaro platformasi yaratildi.

Tuzilma, haqiqatan, qisqa vaqtida shakllanib, dastlabki joriy natijalarga erishdi. Avvalo, tarix uchun, ayniqsa, hozirgi shiddatli o'zgarayotgan dunyo, davlatlararo munosabatlarda noaniqliklar paydo bo'lib, o'zaro ishonch hissi pasayib borayotgan oxirgi o'ttiz yillik davr juda qisqa muddat bo'lishiga qaramasdan TDT tashkiliy institutlarini shakllantirib bo'ldi. Tashkilot doirasida Turkiy davlatlar parlamentlari assambleyasi, Turk akademiyasi, Turk madaniyati va merosi jamg'armasi tashkil etildi. Faoliyatning asosiy tamoyillari 2016-yil qabul qilingan Istanbul deklaratsiyasida belgilab qo'yildi. Turkiy kengash kotibiyati Istanbul shahrida faoliyat yuritmoqda. 2018-yil sentyabr oyida Cho'ponota shahrida Yevropa vakili Vengriya kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi. Shundan keyin Budapest shahrida TDT vakolatxonasi ochildi.

Tashkilot tarixiga e'tibor bersak u XX asr oxirida sobiq SSSR parchalanganidan so'ng mavjud kelgan obyektiv reallikka hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonga o'ziga xos javob sifatida tashkil topganini ko'ramiz. Ta'kidlash kerak, dunyoning ikki qutbga bo'linishi natijasida ko'p yil davomida bu hududlardagi davlatlar, xalqlar o'rtasidagi aloqa sun'iy ravishda ihotalanib, butunlay to'xtab qolgan edi. O'sha yillari jahon siyosati va iqtisodiyotida vujudga kelgan real vaziyat, bir tomondan, turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy aloqalarni qayta tiklash va yangi davrga mos siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar munosabatni, zamonaviy muloqotni shakllantirish va rivojlantirishga imkon yaratdi. Boshqa tomondan, sobiq ittifoq tarkibidagi turkiy xalqlarda milliy o'zlikni anglashga e'tibor kuchaydi, tarixiy an'analar qayta tiklandi, turkiy davlatlar aloqalari shakllanib, faollashdi.

Tashkilotning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi muhim tendensiya sifatida rivojlanmoqda. Turk dunyosida hamkorlik platformasini tashkil etish maqsadida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston tashabbusi bilan 2009-yil 3-oktabr kuni Naxiche-



van shahrida turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar kengashi to'g'risida kelishuv imzolandi, 3-oktabr — TDTning rasmiy tashkil topgan kuni bayram sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Shu kundan boshlab tuzilma turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar hamkorligi kengashi sifatida faoliyat yuritib boshladi. 2021-yil noyabr oyida Istanbul shahrida bo'lib o'tgan sammitdan yangi tendensiya boshlandi. Bu davrga kelib, bir tomondan faoliyat doirasi kengaydi, ishtirokchi davlatlar soni ortdi. Mazkur jumladan O'zbekiston Tashkilotiga haqiqiy a'zo bo'lib kirdi. 2021-yil 12-noyabrda tashkilotning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini oshirish, mintaqaviy barqarorlik va

Tashkilotning asosiy maqsadi turkiy mamlakatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, barcha sohalarida hamkorlik, o'zaro muloqot maydonini yaratish, Yevrosiyo hududida va global darajada xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

yatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishi, tashkilotning xalqaro maydondagi roli va nufuzini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonning TDTdagi faolligi

Mamlakatimiz TDTga raislik qilgan davridagi o'zgarishlar va Samarqandda o'tkazilgan sammit hamda O'zbekistonning Tashkilotga raislik qilishi yangi qirralarni boshlab berdi. Bu borada davlatimiz rahbarining quyidagi g'oyalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.



Davlatimiz rahbari Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida yangi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'timishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish, Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini faollashtirish muhimligi qayd etildi. Savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni qo'llash, elektron savdo platformalarini rivojlantirish, transport va tranzit sohasida o'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni faollashtirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlash shular jumlasidandir.

tinchlikni ta'minlashdagi real imkoniyatini kengaytirish uchun sakkizinchi sammitda tuzilma nomi "Turkiy davlatlar tashkiloti" etib o'zgartirildi. Zero, turkiy davlatlar hamkorligi bugungi davr talabiga javob berishi, hamkorlik mexanizmi mustahkamlanishi, o'zaro bog'liqlikda yanada mukammal siyosiy-huquqiy asos yaratilishi uchun ayni qadam muhim ahamiyatga ega edi. Istanbul sammitida so'zga chiqqan O'zbekiston Prezidenti bunday qaror o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishda mustahkam zamin yaratishiga ishonch bildirib, faoli-

Birinchi, "Turkiy sivilizatsiyasi yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiori ostida bo'lgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlar hayotga ichkil tatbiq etilmog'ida.

Ikkinchidan, O'zbekiston raisligi davrida yuzdan ortiq turli tadbirlar o'tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Uchinchidan, "Turkiy nigoh — 2040" konseptual dasturi asosida amaliy hamkorlikning yangi va yanada samarali mexanizmlari yaratildi.

To'rtinchidan, Turkiy davlatlar Kasa-ba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jo'g'rofiy kengash, Qurg'oqchilikni bartaraf etish instituti, Notarial idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar ish boshladi.

Beshinchidan, qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar — BMT va uning turli ixtisoslashgan institutlari, Islom hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqin sheriklik aloqalari o'rnatildi.

Global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelayotgani, xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari ko'payib borayotgani alohida ko'rsatib o'tildi.

Bu borada Falastin — Isroil mojaro-si keyingi paytda xavfli tus olgani jiddiy xavotirga solayotgani, qurolli to'qnashuvlar oqibatida tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin o'rtib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchayotganini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan ziddiyat ishtirokchilarini zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqirdi.

Butun dunyo afkor ommasi e'tiboridagi Falastin — Isroil muammosini BMT rezolyutsiyalariga muvofiq "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal etish zarurligi borasida O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy ekanini bildirdi.

Ayni paytda, afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susay-tirmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

Va nihoyat, Tashkilot doirasida madaniy-ma'rifiy jarayonlarni yanada kuchaytirish maqsadida jaddid bobolarimizning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish muhimligini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti TDT mamlakatlari vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro anjumanda faol ishtirok etishga taklif etishi muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

O'z navbatida, davlatimiz rahbari Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida yangi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'timishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish, Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini faollashtirish muhimligi qayd etildi.

Savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni qo'llash, elektron savdo platformalarini rivojlantirish, transport va tranzit sohasida o'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni faollashtirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlash shular jumlasidandir.

Yana bir muhim jihat. Tashkilotning Temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etish va bu tuzilma direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish, vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish, O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochildi, tashabbuslar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, davlatimiz rahbari tomondan xalqaro vaziyatga berilgan baho va vujudga kelayotgan muammolarni hal etish bo'yicha aniq yechimlarning taklif etilishi nafaqat tashkilot doirasidagi davlatlar balki xalqaro miqyosda muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Tashkilot doirasida ilgari surilgan tashabbuslar esa belgilangan vazifalarni amalga oshirishning yangi mexanizmi va instrumentlarini vujudga keltiradi.

Tashkilot doirasida madaniy-ma'rifiy jarayonlarni yanada kuchaytirish maqsadida jaddid bobolarimizning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish muhimligini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti TDT mamlakatlari vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro anjumanda faol ishtirok etishga taklif etishi muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

www.yuz.uz

yuz_official

yuz.uz_news



AGROTARMOQ

QISHLOQ XO'JALIGI VA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI

IMKONIYAT KENG, UNI O'ZLASHTIRISH MALAKALI KADRLARGA BOG'LIQ



Kamoliddin SULTONOV,
Toshkent davlat agrar universiteti
prorektori

“Universitetimiz jahonning sohadagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni jadal kengaytirmoqda. Jumladan, ICARDA, FAO, KOPIA, JICA, USAID tashkilotlari, Germaniyaning ERASMUS+ dasturi BUZNET loyihasi asosida Buyuk Britaniya, AQSH, Estoniya, Italiya, Portugaliyadagi nufuzli universitetlar, Koreya

Respublikasining Konkuk hamda Rossiyaning agrar sohadagi qator oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlik o'rnatildi.

Boshlanishi 1-betda

Bugun har qanday soha, jumladan, agrar sektorda ham xalqaro raqobat kuchli. Unda yutish va shu orqali rivojlanishga erishishning asosiy sharti esa bitta — bozorga sifatli va nisbatan arzon mahsulot taklif etish. Bu, o'z navbatida, ekin parvarishidagi sarf-xarajatlarni qisqartirish bilan birga, hosildorlikni oshirishni talab qiladi. Buning uchun ilimga asoslangan faoliyat, malakali mutaxassislar zarur. Chunki sarf-xarajatlarni qisqartirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, hosildorlikni oshirish uchun esa yangi, iqlim sharoitimizga mos serhosil navlarni yaratish kerak. Shuning uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi zamonaviylashtirilib, ilmiy-o'quv jarayonlarini tubdan yaxshilash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaygan.

Prezidentimizning 2019-yil 19-avgustdagi “Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu borada muhim huquqiy

Qarorga muvofiq, nazariya va zamonaviy amaliyotni o'quv jarayonlarida chambarchas bog'lash natijasida endi talabalar jadvallar, taqdimot, surat yoki quritilgan o'simlik namunalardan emas, balki o'z qo'li, amaliyoti, ko'nikmasi orqali dalada yetishtirgan tabiiy o'simliklar yoki nav, duragaylar asosida bilim olishiga zarur sharoit va imkoniyatlar yaratildi.

Qishloq xo'jaligi sohasi tor mutaxassisligiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida ikkinchi o'quv bosqichidan talabalarni o'zi tanlagan ixtisoslikka maqsadli yo'naltirish, bitiruv malakaviy diplom ishining zaminini shu davrdan shakllantirish hamda bir talabaga universitetdan bir ustoz va ilmiy-tadqiqot muassasasidan yoki ishlab chiqarishdan yana bir ustoz birlashtirish tartibi yo'lga qo'yildi. Buni kengroq tushuntiradigan bo'lsak, avvallari olim agronom yoki olim chorvador deb yozilgan diplom berilardi. O'qishni bitirib borgan olim agronom avvalgi kolxoz yoki sovxozda paxtachilik kompleksida ishlayotgan bosh yoki bo'lim agronomlariga yor-



asos yaratdi. Hujjatda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kadrlar tayyorlash siyosati va sifatini tubdan yaxshilash, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini uzviy bog'lashga qaratilgan ko'plab vazifalar belgilab beriliddi, ularning ijrosi universitetimiz faoliyatida bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi sohasiga oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash siyosati yaqin-yaqindagina deyarlik o'zgarib, mustabid tuzumdagiki eski talab va andozalar bo'yicha davom etib kelayotgan edi. Eski texnika va texnologiyalar, nav, namuna va adabiyotlardan foydalanardik, sohaga doir dunyo yangiliklari va ilg'or texnologiyalardan butkul ajralib qolgan edik. Shuningdek, nazariya va amaliyot o'rtasida katta uzilish, bo'shliq paydo bo'lgandi. Bu kabi xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida universitet tuzilmasi, fakultet va kafedralar, magistratura va umumiy o'quv jarayoni to'liq qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi. Bunda davr talab etayotgan soha va tarmoqlar, ayniqsa, tor yo'nalishdagi ixtisosliklarga ustuvorlik berildi.

Toshkent davlat agrar universiteti 1930-yilda tashkil etilgan. U nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoda ham yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, soha bo'yicha xalqaro nufuzga ega.

damchi bo'lib faoliyat boshlardir. Xo'jalikda esa asosiy ekin g'o'za, qisman beda, makkajo'xori yoki boshqoqli don, asosan, ozuqa uchun yetishtirilardi. Agronom g'o'za yetishtirishni bilsa bo'ldi edi. Hozir donli, dukkakli don, moyli, yem-xashak, sholi, sabzavot, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan hamda shu tizimni boshqaradigan tor soha ixtisosligi bo'yicha agronomlar o'ta zarur.

Avvallari parrandachilik, ipakchilik, quyonchilik, asalarichilik, baliqchilik, echkichilik, yilqichilik va boshqa tor ixtisosliklarga umuman e'tibor bo'lmagan, desak mublag'a bo'lmaydi. Vaholanki, har bir sohani o'z egasi, mutaxassisi boshqarishi yuqori samara garovidir. Tan olish kerak, ko'plab hollarda ushbu yo'nalishdagi uyushmalarni kadrlar bilan ta'minlash katta muammo bo'lib keldi. Haqiqiy kadrlarni tayyorlash esa yillar talab etadi.

Mamlakatimiz rivojiga ta'sir etayotgan barcha sun'iy to'siqlar olib tashlanishi, tor sohalarni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar, moddiy qo'llab-quvvatlash tor soha ixtisosliklarini keskin rivojlantirishga

katta turtki bo'lmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlikning tubdan qo'llab-quvvatlanishi inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ana endi biz shu talablarga mos zamonaviy kadrlarni tayyorlab berishimiz ham qarz, ham farzdir.

Chunki bu inqilobiy o'zgarishlar samarasini yosh kadrlar belgilaydi. Shuning uchun ham universitetda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda faqat talabalar emas, professor o'qituvchilarning malakasi ham muhim. Shu bois, so'nggi uch yil davomida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarida 400 nafardan ortiq rahbar va pedagog xodimning malakasi oshirildi.

Universitetimiz jahonning sohadagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni jadal kengaytirmoqda. Jumladan, ICARDA, FAO, KOPIA, JAIKA, USAID tashkilotlari, Germaniyaning ERASMUS+ dasturi BUZNET loyihasi asosida Buyuk Britaniya, AQSH, Estoniya, Italiya, Portugaliyadagi nufuzli universitetlar, Koreya Respublikasining Konkuk hamda Rossiyaning agrar sohadagi qator oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlik o'rnatildi. Shu bilan birga, universitet talabalari va ilmiy izlanuvchi yoshlarni Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarga o'qish va malaka oshirishga yuborish yo'lga qo'yilmoqda.

So'nggi yillarda universitetimiz nafaqat respublika, balki jahonda ham o'z o'rini mustahkamlamoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida yuritiladigan milliy reytingda 15-o'rindamiz. Markaziy Osiyo OT'lar o'rtasida esa 38-o'rinni egalladik. To'g'ri, bu borada qit'a yoki dunyo miqyosida hali maqtanarli natijaga erishmadik. Lekin bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lida qilinayotgan ishlar kelgusida xalqaro reytinglarning yuqori qismidan o'rinni egallashimizga zamin yaratadi.

Toshkent davlat agrar universitetini rivojlantirish strategiyasi hamda “Yo'l xaritasi” da ayni maqsadga qaratilgan dolzarb muammo va vazifalar qamrab olingan. Jumladan, tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish yo'nalishida tuproqshunoslik va agrokimyo, dehqonchilik va melioratsiya hamda boshqa kafedralarning o'qitish dasturlari tubdan qayta ko'rib chiqildi. Zarur holatlarda darsliklar takomillashtirilib, qayta yoki yangidan chop etildi.

Qishloq xo'jaligi juda keng hamda murakkab soha. Murakkabligi uning tabiatga va tabiiy resurslarga bevosita bog'liqligidir. Faslagi nomutanosib ravishda kun isib yoki so'vib ketsa, yog'ingarchilik kam yoki ko'p bo'lsa, yoxud sel, do'l, kuchli shamol, qirov kabi tabiiy injiqliklar bo'lsa, qishloq xo'jaligida bu kabi muammolar kelib chiqaveradi.

Shuning uchun ishlab chiqarishdagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha Toshkent davlat agrar universiteti o'quv tajriba xo'jaligi tizimini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha yangi yo'nalish belgilangan. Bu esa ta'lim — fan — kafedra — ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozir o'qiyotgan yosh kadrlar nafaqat bugun, balki erta va keyingi davr talablariga ham tayyor bo'lishi kerak. Aytaylik, yurtimizda yildan-yilga suv tanqis bo'lib bormoqda. Hozirgi holatga mos bilim hamda shu tizimni boshqaradigan tor soha ixtisosligi bo'yicha agronomlar o'ta zarur.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashda katta potentsialga ega. Bugun ta'lim olayotgan yoshlar esa kuchli bilim va iqtidori bilan ertaga sarf-xarajatlarni yanada qisqartirish, hosildorlikni oshirish, qo'shilgan qiymat yaratishning to'liq zanjirini tashkil etish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilishi, eksport ko'rsatkichlari oshishi, yangidan-yangi qayta ishlar korxonalarini va xizmat ko'rsatish turlari yaratilishiga xizmat qiladi.

XALQARO HAMKORLIK

GSP+ BENEFITSIAR MAQOMIDA YUKSALISH

O'ZBEKISTON — FRANSIYA ALOQALARINING YANGI SAHIFASI

Qo'ng'iroq SHARIPOV, texnika fanlari doktori, professor



“O'tgan yili O'zbekiston va Fransiya o'rtasida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish va strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolangan. Shu bois, tashqi siyosat idoralari o'rtasida 2023-2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dasturlarda madaniy-tarixiy meros, maktabgacha va oliy ta'lim, davlat xizmatlarini rivojlantirish kabi sohalardagi hamkorlik o'z aksini topgan.

Boshlanishi 1-betda

Ikki mamlakat o'rtasidagi integratsion salohiyatni Prezidentimizning 2018-yil oktabr oyida Fransiya uchun rasmiy tashrif doirasida avtotransport, turizm, harbiy-texnikaviy hamkorlik, kosmik tadqiqotlar, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, madaniyat va boshqa sohalarga oid 10 ta hujjat imzolanganida ko'rish mumkin. O'sha tashrifda umumiy qiymati 5 milliard yevroga yaqin investitsiya loyihalari bo'yicha shartnomalar tuzilgan edi.

Joriy yil 1-2-noyabr kunlari Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning rasmiy tashrif bilan Samarqandga kelgani ana shu pragmatik hamkorlik hosilasidir. Tashrif doirasida O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi ko'p qirrali iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish borasida muzokaralar o'tkazildi. Xususan, savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, ta'lim, fan va madaniy-gumanitar sohalarida yangi kelishuvlar erishildi. Bu hujjatlar O'zbekiston yuksak pila-poyalar bo'yab dadil odimlab borayotganiga dalil bo'ladi.



borasida hamkorlikni kengaytirishga kelishildi.

Davlatimiz rahbari tabiiy resurslarni qazib olish tarmog'i, strategik xomashyo resurslarini qayta ishlab, gibrid, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish, suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiyalash, “aqlli” qishloq xo'jaligini joriy etish, shahar transporti va turizm infratuzilmasini

mahsulotlari ishlab chiqarishdir. Bu sohada “Orano” kompaniyasi bilan sheriklikni kengaytirish rejalari o'rganildi. Suv resurslaridan samarali foydalanish va zamonaviy infratuzilmani barpo etish, SUEZ, “Eiffage” va “Veolia” kompaniyalari bilan birgalikda yurtimiz suv ta'minoti va isitish tizimlarini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Navbatdagi muhim yo'nalish sifatida qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda zamonaviy agrolotistika majmualari qurish bo'yicha Fransiya bilan faol hamkorlik qilish istiqbolli belgilab olindi.

O'tgan yili O'zbekiston va Fransiya o'rtasida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini



O'zbekiston va Fransiya delegatsiyalari uchrashuvda hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda savdo-investitsiyaviy kelishuvlar imzolanganiga barobarida eksport hajmini yanada kengaytirish va oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi. Ikki davlat yetakchilari tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni ortishi hisobiga loyihalar qiymati 10 milliard yevrodan ortib borayotganini qayd etdi. Xususan, Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 1 milliard yevrolik strategik hamkorlik dasturi amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. Shuningdek, globallashuv sharoitida dolzarb ahamiyatga ega “yashil” energetika xom-ashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish, turizm va boshqa sohalarda yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

O'zbekistonda fransuz tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgani munosabati bilan Fransiya alyansining Samarqanddagi filiali ochildigani tarixiy voqea sifatida qayd etildi. Toshkent shahrida O'zbekiston — Fransiya oliy ta'lim muassasasini ochildirish hamda fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash

amalga oshirish va strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolangan. Shu bois, tashqi siyosat idoralari o'rtasida 2023-2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dasturlarda madaniy-tarixiy meros, maktabgacha va oliy ta'lim, davlat xizmatlarini rivojlantirish kabi sohalardagi hamkorlik o'z aksini topgan. Shuningdek, fuqarolik aviatsiyasi, korrupsiyaga qarshi kurash, sudyalari malakasini oshirish, fransuz tilini o'qitish va boshqa yo'nalishlarda hujjatlar qabul qilingan.

Mazkur dastur doirasida umumiy qiymati 6 milliard yevrodan ortiq bo'lgan turli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlar oliy darajadagi uchrashuvning ahamiyati nechog'liq yuqori ega ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 10 barobar oshdi. O'zbekiston GSP+ benefitsiari maqomini olgani ortidan meva-sabzavot, xususan, yong'oq, to'qimachilik mahsulotlari, gilam, elektrotexnika buyumlarining ayrim turlari eksportida o'rtacha o'sish kuzatildi. Bundan tashqari, mamlakatimiz Fransiya tashqi bozordan yetarli hajmda import qiladigan ayrim turdagi mahsulotlarni yetkazib berish hajmini oshirishda hamkorlik qilmoqda. Metallurgiya (mis, rux va qora metall), kimyo va to'qimachilik mahsulotlari (tayyor kiyim-kechak, gilam), meva-sabzavot hamda polimer, ba'zi elektrotexnika buyumlari shular jumlasidan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yildan buyon yurtimizda Fransiya kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 3,5 barobar ko'paygan, 100 foiz fransuz kapitaliga ega bo'lganlari 13 tadan 46 taga oshgan.

O'zbekistonda Fransiya sarmoyasi ishtirokida energetika, suv ta'minoti, chorvachilik, sayohat infratuzilmasini barpo etish kabi yo'nalishlarda qator yirik sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bular Samarqand viloyatida quyosh fotoelektr stansiyasi, Sirdaryo viloyatida kombinatsion elektr stansiyasi qurilishi, Surxondaryo viloyatida suv xo'jaligi va ichimlik suv ta'minotini modernizatsiya qilish kabildir. O'zbekistonga kelayotgan fransuz sayyohlari sonini ko'paytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish orqali turistik xizmatlar eksporti ham istiqbolli yo'nalishdir.

Fransiya bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik tobora kengayib, ko'proq tarmoq va yo'nalishlarni qamrab olgan holda diversifikatsiya qilinmoqda. Bu hamkorlik istiqbolli hali foydalanilmagan ulkan resurslardan samarali foydalanishni ko'zlaydi.

